

AFG‘ONISTONDA GUMANITAR VAZIYATNING HOZIRGI HOLATI

Istamova Dilnura Zafar qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda Afg‘onistondagi gumanitar vaziyatning qanchalik og‘ir kechayotganligi va boshqa davlatlarning bunga munosabati muhokama qilinadi hamda Afg‘oniston aholisiga bu masalada yordam ko‘rsatishni tadbiq qilish va dunyo hamjamiyatining bu davlat uchun yagona strategiya ishlab chiqish masalalarini yoritib berishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: BMT, radikalizm, ekstremizm, gender tengsizlik, terrorizm

Annotation: This article discusses the gravity of the humanitarian situation in Afghanistan and the response of other countries to it, and attempts to highlight the issues of implementing assistance to the people of Afghanistan in this matter and developing a unified strategy for the international community.

Key words: UN, radicalism, extremism, gender inequality, terrorism

Аннотация: В данной статье рассматривается серьезность гуманитарной ситуации в Афганистане и реакция на нее других стран, а также предпринимается попытка осветить вопросы оказания помощи народу Афганистана в этом вопросе и выработки единой стратегии для международного сообщества.

Ключевые слова: ООН, радикализм, экстремизм, гендерное неравенство, терроризм.

KIRISH

Afg‘oniston bu ancha yillardan beri ko‘pgina davlatlarni qiynab kelayotgan va haligacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan muammolardan biridir. To‘g‘ri, Rossiya va Ukraina urushi davrida bu muammo omma nigohidan chetda qoldi lekin bu butunlay unutildi degani emas. Ayniqsa, Afg‘onistondagi muammolar Tolibon hukumati hokimiyat tepasiga kelganidan keyin yanada murakkablashdi va Afg‘oniston bunday mushkul vazifalarni mustaqil ravishda o‘zi hal eta olmaydi.



Xususan, Afg'onistonda Tolibon hukumat tepasiga kelganidan so'ng, aholi uchun qiyin kunlar boshlandi deyish mumkin chunki, gumanitar vaziyat anchagina og'irlashganining guvohi bo'ldik. To'g'ri, aholi xavfsizlik darajasi sezilarli darajada yaxshilandi ammo, gender tengligi masalasi, aholining ijtimoiy ahvoli yomonlashdi.

Shu munosabat bilan BMT oziq-ovqat dasturi boshlig'i Devid Bizli bunday ayanchli holatga baho berar ekan, u Afg'onistonda eng og'ir talofatli gumanitar inqiroz bo'lishi mumkin deydi. Bundan tashqari, Afg'onistonda terrorizm ham avj olmoqda, bugun Afg'onistonda BMT xavfsizlik kengashi ro'yxatiga kiritilgan 28 ta terroristik tashkilotlardan 22 tasi faoliyat olib boradi.

Jumladan, agar Afg'onistonda iqtisodiy va ijtimoiy ahvol yaxshilanmas ekan, bu davlatda tinchlik o'rnatish uzoq istiqboldagi masala bo'lib qolaveradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Butun dunyodagi dolzarb mavzulardan biri bo'lgan Afg'oniston hozirgacha dunyo e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Ko'plab olimlar bu mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Ulardan biri Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining dotsenti siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori Suhrob Bo'ronov shunday deydi: "Osiyo suv va yer tanasidir, Afg'oniston esa bu jismning yuragi agar uning yuragi og'riy boshlasa, butun Osiyo og'riy boshlaydi. Qalbning sustligi Osiyoning tanazzulidir, yurakning yuksalishi esa Osiyoning yuksalishidir". Bugungi kunda Afg'onistondagi vaziyatlar jahon siyosati nazaridan chetda qoldi ammo, bu mojaro shiddatlilikini yo'qotgani yo'q va hozirda afg'on xalqi gumanitar inqirozni boshdan kechirmoqda buni hal qilish uchun esa "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish kerak - deydi Suhrob Bo'ronov.

Mana uch yildirki, afg'on xalqi Tolibon hukmronligi ostida yashab kelmoqda. Hukumat tepasiga toliblar kelganidan keyin gumanitar vaziyat anchagina og'irlashdi deyish mumkin. Afg'onistonning iqtisodiy jihatdan qoloqligi ham, mamlakat aholisining tinch va osuda hayot kechirishiga to'sqinlik qilmoqda.

Mamlakat xalq xo'jaligi va infrastrukturasini butunlay izdan chiqqanligi tufayli afg'on hukumati o'zining aniq daromad manbalari va davlat budjetiga ega emas. Donor-davlatlar tomonidan ajratilishi rejalashtirilgan



xalqaro moliyaviy yordam esa bir necha yillar davomida aniq loyihalar bo'yicha yo'naltiriladi, xolos¹.

Afg'onistondagi korxonalar faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, XXI asr boshida hech qanday yirik korxonalar qolmagan, faqatgina qo'l bilan sanarli miqdordagi o'rta darajadagi korxonalar va kichik korxonalarni uchratish mumkin edi va ularning ham ahvoli nochor edi.

Hozirgi kunda, afg'on aholisining asosiy daromad manbalaridan biri bu narkotik moddalar hisoblanadi va aholi narkotik savdosi orqali kun kechirib kelmoqda, lekin dunyo hamjamiyati bunga qarshi va toliblarga narkotik savdosini to'xtatishni qat'iy talab sifatida qo'ygan. Jahon banki ham mamlakatga insonparvarlik yordamlari ko'rsatish o'rniga iqtisodiyotni rivojlantirishga ko'maklashuvchi sohalarga tegishli moliyaviy dasturlarni amalga oshirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi va ushbu davlatda gumanitar vaziyatning yaxshilanishiga zamin yaratadi. Agarda, Afg'onistonning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan davlat ekanligini hisobga olgan holda, irrigatsion tizimlarni qayta ishlab, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari va moddiy tomondan ko'mak berilsa, ular o'zlarining ahvolini ancha yaxshilab olishlari mumkin.

Bilamizki, 1996-2001-yillar mobaynida Afg'onistonga Tolibon hukumati rahbarlik qilgan edi va bu davrda aholining gumanitar ahvoli ancha og'irlashgan edi. Keyinchalik hukumat almashganidan so'ng, gumanitar vaziyatning sekinlik bilan yaxshilanib borganining guvohi bo'ldik va bu davrda mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklashga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirildi². Xususan, transport va energetika sohalarida 10 ga yaqin loyihalar moliyalashtirilib birmuncha yutuqlarga erishildi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu davrda Afg'oniston o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga harakat qildi ya'ni bu davlat sanoat maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan xomashyo manbalariga va temir zaxirasiga boy davlat edi.

¹ Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 344 b.

² Afg'oniston tarixi., O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta ta'lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg'oniston tarixi o'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 344 b.



2021-yil hukumat tepasiga Tolibon rahbarlari kelganidan so‘ng, gumanitar vaziyat yana og‘irlasha boshladi va 3dunyo hamjamiyati “Tolibon” hukumatiga bir qator shartlar qo‘ydi. Bular: ayollar va qizlarning fundamental huquqlarini ta‘minlash, inklyuziv hukumat tuzish, sobiq hukumat a‘zolarini tazyiq ostiga olmaslik, Afg‘onistonni ekstremizm o‘chog‘iga qaytadan aylantirmaslik va davlatni narkobiznesdan holi davlat sifatida shakllantirish kabilar. Chunki bu dunyoda xavfsizlik va mamlakatning barqarorligi inson huquqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Lekin, ular hamjamiyatning birorta talabini qoniqarli darajada bajargani yo‘q, shuning uchun ham, bu davlat haligacha o‘z ijobiy imijini yarata olmadi.

Bundan tashqari, Afg‘oniston jahonda eng qashshoq mamlakatlar qatoriga kiradi. Tolibonning hokimiyatga kelishi bilan iqtisodiyot tom ma‘noda qulab tushdi, ishsizlik keskin ortadi va aholining ko‘p qismi qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydi. Sog‘liqni saqlash tizimi esa moliyaviy tomondan hamda, kadrlar yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Ko‘plab shifoxonalar yopilgan va tibbiy xizmatlarga kirish yopilgan bu esa kasalliklarning tarqalishi va o‘lim holatlarining ko‘payishiga olib kelmoqda.

Ta‘lim tizimiga ham to‘xtaladigan bo‘lsak, qizlar uchun ta‘limga kirish cheklangan. Hukumat rahbarligi Tolibon qo‘liga o‘tganidan keyin, qizlarning maktabga borishi cheklandi bu esa kelajak avlodning ham rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Xalqaro hamjamiyat Afg‘onistonga yetarlicha gumanitar yordam ko‘rsatmoqda, ammo bu yordamning yetarli bo‘lmasligi, siyosiy beqarorlik va Tolibonning hukmronligi gumanitar vaziyatni yomonlashtirmoqda.

Jumladan, BMTning 2024-yil fevraldagi ma‘lumotlariga ko‘ra Afg‘onistonda 23,7 mln aholi gumanitar ko‘makka muhtoj, lekin Tolibon hukumati Afg‘onistonda gumanitar vaziyatni yaxshilash uchun emas balki, Qo‘shqan kanalining qurilishiga katta e‘tibor qaratmoqda.

Shuni ham aytib o‘tish o‘rinliki, ISHIDning Xuroson bo‘limi Afg‘onistonda faoliyat ko‘rsatayotgani va u yerda turli teraktlarni amalga oshirayotgani nafaqat aholi uchun xavf tug‘dirib gumanitar vaziyatni og‘irlashtirmoqda balki, qo‘shni mintaqada davlatlariga ham xavf tug‘dirmoqda⁴. 2023-yilning

³ “Tolibon” hokimiyatining 3 yili – ekspertlar nigohida., 17.08.2024. Url: <https://kun.uz/news/2024/08/17/tolibon-hokimiyatining-3-yili-ekspertlar-nigohida>.

⁴ Mablrag‘ yetishmasligi Afg‘onistondagi gumanitar vaziyatni og‘irlashtirmoqda. Url: <https://www-amerikaovozi-com.cdn.ampproject.org/v/s/www.amerikaovozi.com>.



10 ta eng og'ir insonparvarlik inqirozidan biri Afg'oniston, Ukraina, Yaman, Suriya, , Gaiti, Burkina-Faso, Janubiy Sudan, Kongo, Efiopiya, Somalida yuz bergani ham, dunyo hamjamiyatini ogohlikka chorlaydi.

Barchamizga ma'lumki, 2021-yildan Tolibon muvaqqat hukumatni o'z qo'lga oldi.Tolibon hukumat tepasiga kelganidan keyin davlat bir tomondan rivojlanganini ham ta'kidlab o'tishimiz joiz, ya'ni toliblar kelganidan keyin Afg'onistonda keng avj olgan narkotik savdosini pasaytirishga kirishadi. Toliblar Afg'onistonni egallashda bitta davlatga emas qirq sakkizta davlatga qarshi chiqdi va ular ustidan g'alaba qozondi.Tolibonning hukumat tepasiga kelishi bir tomondan,aholi uchun yaxshi bo'lgan bo'lsa boshqa bir tomondan ko'plab noqulayliklar tug'dirdi. Yaxshi tomoni shundaki, aholining xavfsizlik holati bir muncha yaxshilangan lekin ta'lim tizimi va gender masalasi o'z dolzarbligini yo'qotmagan.Va yana shuni aytish kerakki,hozirgi hukumat boshqaruvi davrida aholining gumanitar yordamga ehtiyoji ancha ortgan.Xalqaro hamjamiyat qo'lidan kelgancha, Afg'onistonga gumanitar yordam ko'rsatmoqda lekin, bu yordam yetarli emas va vaziyatning murakkabligi sababli anchagina muammolar mavjud.

XULOSA

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Afg'oniston masalasi yillar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmagan va dunyo davlatlarini tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Qachonki, Afg'oniston davlati haqida so'z borar ekan albatta ko'z oldimizga huquqlari toptalgan ayollar, ko'zi yoshga to'lgan bolalar keladi bu masalani hal qilishning birdan bir yechimi bu davlatni rivojlantirish uchun keng ko'lamlil va uzoq muddatli yagona strategiyani ishlab chiqilishidir chunki, aniq bir tizim bo'yicha ishlanmasa barqarorlikka erishib bo'lmaydi.Va albatta ijtimoiy islohotlar, inson huquqlarini himoya qilish va tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlash kerak.

Bu davlatdagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan gender tengsizligi va ayollar huquqlarining himoya qilinishi ham nazoratga olinishi kerak va hozirda Xalqaro hamjamiyat ham ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Tolibon hukumatining olib borayotgan beqaror siyosati tufayli afg'on xalqi aziyat chekmoqda va murakkab vaziyat yuzaga kelmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Afg‘oniston tarixi., O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta ta‘lim vazirligi tomonidan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan., Afg‘oniston tarixi o‘quv qo‘llanma.-T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 344 b.

2. “Tolibon” hokimiyatining 3 yili – ekspertlar nigohida., 17.08.2024. Url: <https://kun.uz/news/2024/08/17/tolibon-hokimiyatining-3-yili-ekspertlar-nigohida>.

3. Mablag‘ yetishmasligi Afg‘onistondagi gumanitar vaziyatni ogi‘rlashtirmoqda. Url: <https://www-amerikaovozi.com.cdn.ampproject.org/v/s/www.amerikaovozi.com>.

